

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV SARVARBEK ABDUSATTOR O‘G‘LI

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATIDA
MARKAZIY OSIYO VEKTORI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq
taraqqiyotining siyosiy muammolari

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on political sciences**

Fayzullayev Sarvarbek Abdusattor o‘g‘li Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektori.....	3
Файзуллаев Сарварбек Абдусаттор угли Центральноазиатский вектор во внешней политике Исламской Республики Иран.....	27
Fayzullaev Sarvarbek Abdusattor ugli The Central Asian vector in the foreign policy of the Islamic Republic of Iran	53
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	57

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV SARVARBEK ABDUSATTOR O‘G‘LI

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATIDA
MARKAZIY OSIYO VEKTORI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq
taraqqiyotining siyosiy muammolari

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ss368 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Durbek Baxtiyarovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xaydarov Abdusamat Axatovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Yuldashev Anvar Ergashevich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Shahrizabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Shahrizabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " ____ " _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil " ____ " _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

N. A. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b., siyosiy fanlar doktori, dotsent

S. A. Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi v.v.b., siyosiy fanlar doktori, professor

E. S. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yuz berayotgan globallashuv sharoitida davlatlarning geosiyosiy intilishlari jahon tartibotida ko'p qutblilikka o'tish jarayonini tezlashtirmoqda. Xalqaro munosabatlarning ayrim subyektlari maqsadli geosiyosiy va geostrategik manfaatlarini ilgari surgan holda turli davlatlar hamda mintaqalarga o'z ta'sirini kengaytirishga urinmoqda. Ana shunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari, global kuchlarning geosiyosiy bosimi va "o'yin"lariga qaramay, o'z tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda uchinchi davlatlarning aralashuviga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishmoqda.

Jahonning yetakchi siyosiy jarayonlarni tahlil qiluvchi markazlari qutblashuv jarayonlarida neft eksport qiluvchi Fors ko'rfazi davlatlari orasida Eronning o'rnini va ta'siri kuchayib borayotganligi sababli Yaqin Sharq mintaqasi harbiy mojarolarning tarqalishi, mintaqada beqarorlikni keltirib chiqarish xavfi borligini ilgari surmoqdalar. Shuningdek, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyat, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, Afg'onistondagi holatni barqarorlashtirish – Rossiya, AQSh, Turkiya, Pokiston, Markaziy Osiyo davlatlari bilan bir qatorda – Eronning ham tashqi siyosiy faoliyat yo'nalishiga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlamodalar. Shu munosabat bilan, Eronning tashqi siyosatini o'rganish, uning mintaqadagi manfaatlarini tahlil qilish pragmatik siyosat nuqtayi nazardan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va mintaqada barqarorlikka erishish yo'llarini aniqlash Yangi O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston ochiq, pragmatik tashqi siyosat doirasida dunyo mamlakatlari bilan turli yo'nalishlarda aloqalarini mustahkamlamoqda. Xususan, mamlakatning tashqi siyosiy manfaatlari doirasida Eron davlati bilan aloqalarni yanada kengaytirish, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish respublikamizda ustuvor vazifa sifatida belgilangan. "Savdo-iqtisodiy aloqalarning keskin qisqarishi, ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi, ishsizlikning ortishiga olib kelgan pandemiya rivojlanishimiz sur'atlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda, dunyoning ayrim mintaqalarida harbiy-siyosiy vaziyat keskinlashyapti, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar kuchaymoqda. Ushbu global xatar va tahdidlarni yaxshi qo'shnihilik, teng huquqlilik, o'zaro ishonch va manfaatlarini hisobga olish borasida shakllangan an'analarimizni asrash va boyitish yo'li bilangina yengib o'tish mumkin"¹. Shu bois Eronning tashqi siyosati xalqaro maydondagi geosiyosiy vaziyatni o'rganish, Yaqin Sharqdagi vaziyatning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan ikki tomonlama munosabatlarning istiqbolli rejalarini tahlil qilishda alohida ahamiyatli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018-yil 5-aprel, PF-5400-son), "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisidagi nutqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. 10.11.2020. // URL: <https://president.uz/ru/lists/view/3936>.

28-yanvar, PF-60-son) farmonlari hamda “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680-son) qarori rasmiy tashriflar doirasida ikki davlat rahbarlari o‘rtasida imzolangan bitim va memorandumlar, O‘zbekiston va Eron tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida tuzilgan 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan Hamkorlik dasturlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Eronning Markaziy Osiyo yo‘nalishidagi tashqi siyosiy strategiyasi va o‘zaro aloqalariga oid masalalarni o‘rganishda davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyevning asarlari va nutqlari metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyada keltirilgan mavzuga oid olimlarning ilmiy ishlarini to‘rt guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhni Eronning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik jarayonlari, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar tadqiq etilgan mahalliy olimlarning asarlari tashkil etadi. Ushbu olimlar sirasiga A. Xaydarov, G. Yuldasheva, F. Karimov, A. Jalilov, Sh. Yovqochev, N. Kasimova, S. Bo‘ronov, D. Xodjimuratova va boshqalarni kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhni Eronning tashqi siyosati va Markaziy Osiyo bilan aloqalari mavzusida izlanishlar olib borgan MDH olimlarining asarlari tashkil qiladi. Ular orasida A. Semyonov, S. Mehdi, I. Timofeyev, V. Yurtayev, N. Mamedova, Lotfi Zade, V. Kurshakov, D. Varnavskiy, E. Dunayeva, L. Aliyeva, Z. Xolmurodova va boshqa olimlarning asarlarini sanab o‘tish mumkin.

Uchinchi guruh Eronning tashqi siyosati, yadroviy dasturi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan bog‘liq siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda xavfsizlik mavzusiga oid masalalar yuzasidan G‘arb olimlari tomonidan amalga oshirilgan bir qator fundamental tadqiqotlarning natijalari bo‘lgan asarlar tashkil qiladi. Ular orasida M. Varnaar, Sh. Xunter, B. Rumer, D. Smit, E. Uzun, L. Zaccara, P. Sebastian, B. Rubin, C. Sherrill, R. Takeyh, G. Peter, R. H. Dekmejan, H. Simmonian, B. Stefen, A. Cooley, J. Xerzershav, P. Kelli kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi.

To‘rtinchi guruhni o‘z tadqiqotlarida Eronning jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘rni hamda rolini o‘rganishga e‘tibor qaratgan ko‘pgina eronlik olimlarni asarlari tashkil qiladi. K. Elaheh, B. Muhammad Ali, A. Ehteshami, R. Dehshiri, K. Barzegar, R. Ramazani, A. Maleki, D. Manochehr, E. Nader, Z. Said Hadi, D. Firouzabadiy² va boshqa olimlarning asarlari ana shular jumlasidandir.

² Bu va boshqa mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri", A-1-188-raqamli "Xorijiy Sharq va G'arb davlatlari ijtimoiy-siyosiy rivojining nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish" hamda A-1-191-raqamli "Xorijiy tillarda tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish" mavzularidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda xavfsizlik sohalaridagi aloqalarini tahlil qilish, Eron Islom Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatining konseptual asos va yo'nalishlarini tadqiq etish;

Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektorini o'rganishning nazariy jihatlarini hamda uning tashqi siyosatidagi mintaqaviy jihatlarni ochib berish;

Eron Islom Respublikasining hozirgi tashqi siyosatiga xos jihatlarni aniqlash;

Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro munosabatlardagi madaniy va diniy omillarni tahlil qilish hamda xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning siyosiy jihatlarini tadqiq etish;

Eronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlarini tadqiq etish;

Eron Islom Respublikasi va O'zbekiston o'rtasidagi tashqi siyosiy munosabatlarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti hozirgi davrda Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektorining rivojlanish tendensiyalari, ushbu siyosatga ta'sir etuvchi omillar, mintaqa davlatlari bilan aloqalarning hozirgi darajasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, strukturali-funksional kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan ikki tomonlama hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosati tarixiy, etnik, diniy va madaniy omillarga, uning "Tamaddunlar muloqoti" va "Sharqqa nigoh" konsepsiyalariga ko'ra ustuvor o'rin egallashi asoslangan;

Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan regionalizm tendensiyalari, tashqi aktorlar bilan "Markaziy Osiyo+" formatlari doirasidagi ko'p tomonlama siyosiy va savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarining kengayib borayotganligi Eron Islom

Respublikasining mintaqaga konstruktiv ta'sir ko'rsatish manfaatlarining evolutsion rivojlanishiga konseptual asos bo'lishi isbotlangan;

Eron Islom Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'on omiliga ko'ra mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosatida narkotik moddalar savdosi, terrorizm, ekstremizm va separatizm muammosiga qarshi kurash, "ShHT–Afg'oniston" muloqot guruhining faoliyati hamda Afg'onistondagi gumanitar inqirozni hal qilishga ko'maklashish masalalari o'zaro bog'liq va mushtarak ekanligi asoslangan;

Eron Islom Respublikasi bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli munosabatlarni kengaytirish, mintaqalarni bog'lovchi transport-tranzit imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda eng yaqin dengiz portlariga chiqish uchun imkon beruvchi yo'laklar yaratishga asoslangan "Markaziy Osiyo — Eron" sammitini tashkil qilish va "Termiz — Mozori Sharif — Hirot — Chobahor" temir yo'l yo'nalishini barpo etish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Eron prezidentlari (Mahmud Ahmadinajod, Hasan Ruhoniy va Ibrohim Raisiy) tomonidan olib borilgan "Sharqqa nigoh" siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari ham mazkur strategiyaning asosiy tashqi siyosiy yo'nalish o'qiga kiritilgani asoslangan;

Eron hamda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiyot va savdo sohasidagi aloqalarga doir tahliliy-statistik ma'lumotlardagi nomutanosiblik va qarama-qarshiliklar, ularning sabablari tahlil qilingan;

Eron Islom Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlariga o'zining ("Yumshoq kuch" siyosati) madaniy diplomatiyasini targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalari hamda Islom madaniyati va aloqalari tashkilotiga tayanishi ochib berilgan;

transport-logistika sohasida O'zbekiston uchun istiqbolli bo'lgan Eronning Bandar Abbas portini tomonlar uchun samarali transport yo'lagiga aylantirishdagi muammolar Eronga nisbatan qo'llangan sanksiyalar hamda transport-logistika infratuzilmasidagi kamchiliklar bilan bog'liqligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot natijalarining respublika miqyosidagi va xalqaro darajadagi ilmiy konferensiyalar materiallarida, O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijda o'tkazilgan ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi hamda amaliyotda joriy qilinib, vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangani bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati taklif etilgan nazariy xulosalar orqali Markaziy Osiyoda siyosiy, savdo-iqtisodiy munosabatlar va xavfsizlik bo'yicha kompleks o'zaro bog'liqlik tizimining ahamiyatiga doir tadqiqotlarni, mintaqada barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ko'p tomonlama hamkorlik o'rganilishini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mumkinligida ko'rinadi. Dissertatsiyada keltirilgan materiallardan tarix, xalqaro munosabatlar, Eronning tashqi siyosati bo'yicha darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosat bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa dissertatsiya materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari hamda sohaga

tegishli muassasalarning mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida, "Xalqaro munosabatlar", "Sharq mamlakatlari xalqaro diplomatiyasi", "Jahon siyosati", "Mintaqashunoslik" fanlarini o'qitish va tegishli yo'nalishlarda tadqiqot ishlari o'tkazishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eron tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektorining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflardan:

Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan ikki tomonlama hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosati tarixiy, etnik, diniy va madaniy omillarga, uning "Tamaddunlar muloqoti" va "Sharqqa nigoh" konsepsiyalariga ko'ra ustuvor o'rin egallashi borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining ilmiy-amaliy tadbirlarida, shuningdek, madaniy hamkorlik doirasida milliy-madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlari, jumladan, "O'zbekiston – Eron" do'stlik jamiyatining tadbirlar rejasi va yo'l xaritalarini ishlab chiqishda foydalaniladi (Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2023-yil 23-avgustdagi 14-07-1074-son ma'lumotnomasi). Natija milliy-madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlarining faoliyatini rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi;

Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan regionalizm tendensiyalari, tashqi aktorlar bilan "Markaziy Osiyo+" formatlari doirasidagi ko'p tomonlama siyosiy va savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarining kengayib borayotganligi Eron Islom Respublikasining mintaqaga konstruktiv ta'sir ko'rsatish manfaatlarining evolutsion rivojlanishiga konseptual asos bo'lishi borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan respublika vazirlik va idoralariga yuboriladigan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 25-iyundagi 18/28692-son ma'lumotnomasi). Natija mazkur sohadagi axborot-tahlil ma'lumotlarining kengayishi, tahliliy materiallarning ilmiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishiga xizmat qilgan;

Eronning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatining rivojlanish xususiyatlari, geosiyosiy ahamiyati, iqtisodiy ustuvorliklari, xalqaro siyosiy jarayonlarda yirik mintaqaviy kuch sifatida ishtirok etishining ilmiy asoslanganligi va mintaqaviy muloqot rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan o'rganilib, tomonlar o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari, afg'on omiliga ko'ra mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosatida narkotik moddalar savdosi, terrorizm, ekstremizm va separatizm muammosiga qarshi kurash, savdo-sotiq, transport, logistika va investitsiya sohasidagi aloqalarni mustahkamlash borasidagi xulosalardan Oliy Majlisning Eron Islom Respublikasi parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhining 2021- hamda 2022-yillardagi ish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasining 2023-yil 28-avgustdagi 04/6-08-41-son ma'lumotnomasi). Natija parlamentlararo ekspertlar guruhini tuzish hamda yillik ish rejalarining mazmun jihatdan samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilgan;

Eron Islom Respublikasi bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli munosabatlarni kengaytirish, mintaqalarni bog‘lovchi transport-tranzit imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda eng yaqin dengiz portlariga chiqish uchun imkon beruvchi yo‘laklar yaratishga asoslangan “Markaziy Osiyo — Eron” sammitini tashkil qilish va “Termiz — Mozori Sharif — Hirot — Chobahor” temir yo‘l yo‘nalishini barpo etish zarurligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Tranzit strategiyasi, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi ikki tomonlama muzokaralar bayoni va boshqa Afg‘oniston-Pokiston yo‘lagi bilan bog‘liq konseptual hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanildi (Transport vazirligining 2023-yil 22-noyabrdagi dalolatnomasi). Natija yuqoridagi qayd etilgan hujjatlarni mazmun jihatdan samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro darajadagi, 6 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbat va seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (ulardan 7 tasi respublika va 3 tasi xorij jurnallarida) e‘lon qilingan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muhimligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar ochib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatini tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlanadi.

Unda Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatining konseptual asoslari, ustuvor yo‘nalishlari, davlatning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektorining o‘rni hamda amaldagi tashqi siyosatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatining asl mohiyatini tushunish, avvalo, davlat tuzumi shakllanishining mohiyatini anglashni taqozo etadi. Abu Nasr Forobiy, Ahmad ibn Nizomulmulk, Nosiriddin Tusiy va boshqa mutafakkirlar Eronda siyosiy falsafaga asos solganlar.

Mazkur mutafakkirlar nazariyalari mohiyatiga ko‘ra davlat hokimiyati din va hikmat bilan uyg‘unlashganda ideal hukumat bo‘la oladi, deb hisoblaganlar. Ushbu siyosiy falsafiy qarashlar zahirida 1979-yilda “adolatsiz” deb topilgan dunyo tartibotiga qarshi bo‘lgan Eron inqilobi sodir bo‘ldi. Mamlakat tashqi siyosati Sharq va G‘arb bloklari o‘rtasida bo‘lingan ikki qutbli dunyo tizimi “dunyoning barcha xalqlari uchun adolat va xavfsizlikni ta‘minlashi kerak” degan tamoyilga asoslangan. Shu

tariqa Oyatulloh Xumayniyning “Na Sharq, na G‘arb” ta’limoti Islom inqilobidan keyin davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

1979-yildan 1989-yilgacha Ruhulloh Humayniy hokimiyatda bo‘lgan davrda mamlakat tashqi siyosati konsepsiyasi uning diniy va siyosiy g‘oyalari o‘zida mujassam etgan “Islom inqilobi eksporti” deb nomlandi. Uning fikricha, “eksport” Eron siyosatining ajralmas qismi edi³.

Biroq “Islom inqilobini eksport qilish” tushunchasining asosiy mohiyati Eronga - “inqilob” markazi, Eron rahbariga esa butun dunyo musulmonlarining yetakchisi sifatida qarash edi⁴.

Eronda 1979-yilda amalga oshirilgan inqilob shia yo‘nalishida bo‘lishiga qaramay, butun dunyodagi musulmon mamlakatlarida islom dini rivojlanishi uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qildi⁵.

Muhammad Xotamiy (1997–2005) xalqlar va davlatlar tengligini nazarda tutuvchi “Tamaddunlar muloqoti” tashqi siyosiy konsepsiyasini ilgari surdi⁶. M. Xotamiy tamaddunlar muloqoti mohiyatini anglashda ikki qutbli dunyoning qulashi tarixning oxiri emas, balki bir-ikki qutbli davlatning monopoliyasidan xoli bo‘lgan muloqotga, yangi, adolatli dunyoga yo‘l ochdi, deb hisobladi⁷.

Muhammad Xotamiyning “Tamaddunlar muloqoti” konsepsiyasi munosabatlari sovuqlashgan AQSh davlati bilan aloqalarni yaxshilashni nazarda tutadi.

Eronning “Islom uyg‘onishi” tashqi siyosat konsepsiyasini o‘rganishga qiziqish 2011-yildan keyin paydo bo‘ldi. “Islom uyg‘onishi” tashqi siyosat konsepsiyasi “Arab bahori” voqealari hamda uning Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi davlatlari bilan munosabatlarini mustahkamlashda Eron mafkurasiga asos bo‘ldi.

“Islom uyg‘onishi” bilan bog‘liq manbalar A.V.Baranovning asarlarida arab bahori voqealari kontekstida batafsil ko‘rib chiqilgan⁸.

G‘arb tadqiqotchilaridan P. Moxseni⁹ va S. Xaderi¹⁰ asarlarini alohida qayd etish lozimki, ularda mualliflar “Islom uyg‘onishi” tushunchasini Eron tashqi siyosati kontekstida to‘liq tahlil qilgan. Shunga qaramay, muammoni o‘rganishning dolzarbligi va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini bugungi Eron tashqi siyosatidagi yangi yo‘nalishlar, statistik tadqiqotlar ma’lumotlari, masalan, ISNA axborot agentligi ma’lumotlari tasdiqlaydi (1-rasm).

³ Iran. Exporting the Revolution. // National Foreign Assessment Center. 2016. — 16 p. // <https://www.cia.gov/readingroom/docs/CIA-RDP81B00401R000500100001-8.pdf>.

⁴ Кепель Ж. Джихад: экспансия и закат исламизма. — М.: Ладомир, 2004. — С. 65-66.

⁵ Пластун В.Н. Деятельность экстремистских сил и организаций в странах Востока. — Новосибирск: Сова, 2005. — С. 245-246.


⁶ Страницы имама Хомейни. Тегеран: Институт составления и публикации произведений имама Хомейни, 1999. Т. 10. — С. 499-500.

⁷ Lynch M. “The Dialogue of Civilizations and International Public Sphere”, Millennium: Journal of International Studies, Vol. 29, No. 2. 2000. — P. 34.

⁸ Баранов А.В. “Исламское пробуждение” и “Арабская весна”: внешнеполитическая доктрина Исламской Республики Иран // Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. История. Международные отношения. 2013. Т. 13. Вып. 3. — С. 71–77.

⁹ Mohseni P. The Islamic Awakening: Iran’s Grand Narrative of the Arab Uprisings // Middle East Brief. № 71. April 2013. // URL: <https://www.brandeis.edu/crown/publications/meb/MEB71.pdf>.

¹⁰ Ghaderi Araee S M. Impact of Islamic Revolution in Iran and Islamic Awakening In the world // International Journal of Humanities and Social Science Invention (IJHSSI). V. 7. № 1. 2018. — P. 76–81.



1-rasm. 2000-yildan 2018-yilgacha Eron siyosiy doiralarida “Isлом inqilobi eksporti” va “Isлом uygʻonishi” iboralarining tilga olinishi¹¹

Eronning tashqi siyosati tahlil qilingan adabiyotlar uch guruhga ajratiladi: birinchisida — Eronning mintaqadagi roli, Saudiya Arabistoni va Isroil singari mintaqa yoki dunyo kuchlariga nisbatan muvozanatlash vazifasi mavjudligi; ikkinchisida — Eronning yadroviy dastur boʻyicha harakatlari; uchinchisida esa inqilobni eksport qilish siyosati yoritiladi.

Eron tashqi siyosatiga oid adabiyotlar asosan ikki jihatga qaratilgan: 1) Eronning mintaqada yetakchi kuch ekanligini namoyish etishga doimiy tarzda intilishi; 2) inqilobiy mafkura va siyosiy institutlar tomonidan shakllantirilgan Eron davlatining oʻziga xosligi.

Eron Isлом Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlari asosida mamlakatda yettita asosiy prinsiplar shakllangan, yaʼni “Hukmronlikni rad etish va zulm bilan kelishmaslik”, “Zulmga qarshi kurash”, “Ozodlik harakatlarini qoʻllab-quvvatlash”, “Musulmonlarni qoʻllab-quvvatlash va himoya qilish”, “Tinchlikda yashash va tinchlik uchun kurash”, “Mamlakatning ichki ishlariga aralashmaslik va oʻzaro hurmat”, “Shartnoma va xalqaro qonunlarga rioya qilish”, ushbu prinsiplar yaqqol matritsa xususiyatiga ega boʻlgan tashqi siyosat konseptualizm tizimini tashkil etadi.

Ushbu matritsaga muvofiq, Eron Isлом Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari shakllantirilib, ular global, mintaqaviy va mahalliy darajalarda amalga oshiriladi.

“Shia hiloli” strategiyasi Eron geosiyosatining Yaqin Sharq mintaqasidagi bosh gʻoyasi hisoblanadi.

Bu gʻoya mintaqadagi shia va sunniy kuchlar raqobatiga asoslangan, Eronga Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada buyuk kuchlarni muvozanatlashtirish, ayni vaqtda mafkuraviy va pragmatik maqsadlarni roʻyobga chiqarish imkonini beradi.

Diniy va madaniy aloqalar Eronning mintaqadagi faol ishtirokini taʼminlaydi. “Shia hiloli” strategiyasining maqsadi amalga oshirilmasa, Tehron Isroil bilan “quruqlik chegaralarini” yoʻqotishi mumkin. Eron uchun bu hudud Isroil yahudiylariga qarshi kurashda samarali nishon hisoblanadi.

¹¹ Mohseni P. The Islamic Awakening: Iran’s Grand Narrative of the Arab Uprisings // Middle East Brief. № 71. April 2013. // URL: <https://www.brandeis.edu/crown/publications/meb/MEB71.pdf>.

Eron geosiyosati xavfsizlikni saqlash va mazhablar o'rtasida ziddiyatlarning oldini olish hamda Isroil, Saudiya Arabistoni va AQShga qarshi muvozanatni saqlash orqali ta'sir doirasini kengaytirishga asoslanadi. Bular Eronning xalqaro va tashqi siyosati oldidagi asosiy to'siq sifatida qaraladi.

Eron Oliy rahbariyati milliylikni mamlakat mustaqilligining ajralmas qismi sifatida aks ettiradi.

Milliylik Eron siyosati mustaqilligining qat'iy pozitsiyasi, bo'ysunmaslik vositasi sifatida qaraladi.

Pragmatizm va milliylik Eron tashqi siyosatining ikki elementi bo'lib, ular muqobil tarzda ishlatiladi.

Tahdidlar milliylikni qo'zg'atadi, pragmatizm barqarorlik va tinchlik sharoitida qo'llaniladi.

Eron AQSh tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar va mintaqaviy raqiblar mavjudligiga qaramay, Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan izchil va uzoq muddatli yondashuvga ega bo'lmagan.

Eron va Markaziy Osiyo munosabatlari sohasida olib borilgan tadqiqotlarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1) Siyosiy xavfsizlik sohasiga e'tibor qaratilgan tadqiqotlar. Eronlik tadqiqotchilardan biri Muhammad Rizo Hafeznia o'z ilmiy ishlarida Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari, uning ushbu mintaqadagi roliga qanday ta'sir qilishini muhokama qiladi. Darraj Manochehr ushbu mavzudagi maqolalarida Eronning Markaziy Osiyo va Kavkaz borasidagi tashqi siyosatini o'rganib, Tehronning pragmatik yondashuviga urg'u beradi;

2) Iqtisodiy masalalar muhokama qilingan tadqiqotlar. M. Nurmohamdiy o'z maqolasida Eron va O'rta Osiyoning o'zaro munosabatlaridagi iqtisodiy imkoniyatlarni ko'rib chiqadi. Boshqa bir tadqiqotda Daman Pak Jomiy iqtisodiy diplomatiyaning rolini o'rganib, iqtisodiyotning Eron va Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri masalasiga e'tibor qaratgan;

3) Madaniy sohasiga doir tadqiqotlar. Said Shakohiy va Murtoza Hajiobodiy tadqiqotlarida Eron va Markaziy Osiyoning madaniy aloqalarini tahlil qilib, Tehronning bu imkoniyatlardan foydalanishiga to'sqinlik qilgan omillarni o'rganib chiqqanlar. Dovud Kiani o'z tadqiqotida Eronning Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan xalq diplomatiyasi va bu sohadagi imkoniyatlari hamda muammolarini o'rganib chiqqan. O'tkazilgan tadqiqotlar Eron Markaziy Osiyoga qaratilgan tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari borasida bir to'xtamga kelmaganligini ko'rsatdi.

Eronning "Sharqqa nigoh" siyosati ittifoqchilik aloqalarini kengaytirish hamda Eronning G'arb kuchlari ta'siriga moyilligini kamaytirish maqsadida Sharqiy yarimsharidagi, xususan, Osiyodagi davlatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va strategik aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategiya sifatida qabul qilindi.

Mahmud Ahmadinajod, Hasan Ruhoniy va Ibrohim Raisiy Eronning xalqaro munosabatlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga intilib, "Sharqqa nigoh" siyosatini olib borishgan. Biroq, ularning siyosatni amalga oshirishi turlicha bo'lib, aniq konseptual asoslarni, geografik ustuvorliklarni, institutsional o'lchovlarni hamda tashqi va ichki kuchlar aralashuvini namoyish etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning siyosiy tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda Eron tashqi siyosatining mintaqaviy jihatlari, Islom Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi madaniy va diniy omillar, xavfsizlik sohasidagi davlatlararo hamkorlikning siyosiy jihatlari Afg‘on omili nuqtayi nazaridan ochib berilgan.

XIX asrdan to hozirgacha eronshunoslikda “Katta Eron” va “Eron” atamallari qo‘llanib keladi. Shuningdek “Buyuk Eron” va “Eron madaniy o‘lkasi” kabi atamalar ham uchrab turadi. “Katta Eron” o‘lkasi hozirgi siyosiy jabhadan tubdan farq qilib, faqat tarixiy, madaniy va diniy birlikka ishora qiladi. Keyinchalik eronliklar yashaydigan chegaralar va hududlarda ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi, lekin Katta Eronning ko‘p qismlarida til va madaniyat hukmron vosita bo‘lib qoldi.



2-rasm. Arablar tomonidan aks ettirilgan “Katta Eron” hududlari¹²

Yuqoridagi xaritada hozirgi fors tilida so‘zlashuvchi aholi yashaydigan hududning fors madaniyati doirasidagi tasviri aniq ifodalangan.

Aksariyat kartograflar fors tilining hozirgi miqyosini yashirgan bo‘lsa-da, bu xarita uning ichki Eron dan Afg‘oniston shimoli, Tojikistonning ko‘p qismi va O‘zbekistonga qadar cho‘zilganini aniq ko‘rsatadi.

Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyo forslari tilini “tojik tili” deb atashni talab qilishi hamda Afg‘oniston hukumatining 1964-yilda xuddi shu tilni “dariy tili” deb atash to‘g‘risida qaror chiqarishi “Katta Eron” hududlarini kartografik jihatdan minimallashtirishga ta’sir ko‘rsatdi. Boshqacha aytganda, siyosiy mulohazalar madaniy reallikdan ustun keldi.

Eronning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan iqtisodiyot, xavfsizlik va madaniyat sohasidagi aloqalarni kuchaytirishga intilishi ikki to‘siqqa duch keldi: birinchidan, endigina mustaqil bo‘lgan davlatlarning o‘z suverenitetini turli mintaqaviy tashabbuslarga, xususan, Eron boshchiligidagi tashabbuslarga bo‘ysundirishni istamasligi; ikkinchidan, Eronning bahsli yadroviy dasturi sababli AQSh tomonidan joriy etilgan sanksiyalar.

Yaqin vaqtlargacha Eronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga intilishi ikki muhim jihatga ega edi: birinchisi — xalqaro izolyatsiyani kamaytirish va yangi qo‘shnilar bilan munosabatlar o‘rnatish;

¹² <https://hormozgan96.wordpress.com/2012/10/24/iran-2012-map/>

ikkinchisi — asosiy qurol yetkazib beruvchi Rossiya bilan yaxshi munosabatda bo‘lib, Markaziy Osiyoda unga qarshi siyosat yuritmaslik.

Eron geosiyosiy tafakkurida Markaziy Osiyo Eron uchun boshqa yetakchi davlatlarga olib chiqadigan ko‘prik yoki darvoza vazifasini o‘taydi degan tushuncha asosiy o‘rin egallaydi. Biroq, Eron mintaqamiz bilan geografik va ba‘zi hollarda madaniy jihatdan yaqinligiga qaramay, Yaqin Sharqda bo‘lgani kabi Yevrosiyoda ham ma‘lum sabablarga ko‘ra mintaqaviy kuch sifatida to‘liq shakllana olmadi¹³. Boshqa mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni ko‘paytirishga intilayotgan Islom Respublikasida ko‘pchilikni tashvishga solayotgan masala AQShning Eron bilan biznes yurituvchi banklarga nisbatan iqtisodiy jazo choralarini qo‘llashda davom etayotganidir. Agar sanksiyalar olib tashlansa yoki yumshatilsa, Eronning global iqtisodiyotga yanada ko‘proq qo‘shilishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun uni yanada jozibador hamkorga aylantiradi.

Eronning qiyinchiliklari Markaziy Osiyoning Rossiya, Turkiya, AQSh va Xitoy kabi buyuk davlatlar uchun hayotiy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo davlatlarining global kuchlar hamda Eronning siyosiy raqiblari bilan yaqinlashishi uning kelajakdagi qo‘rquv darajasini yanada oshiradi. AQSh hukumatining Eronga qarshi sanksiyalari uning Markaziy Osiyo bilan energetika, xususan neft hamda bank sektorlaridagi aloqalariga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatishi yoki hatto to‘xtab qolishiga ham olib keladi.

Rossiyaga kelsak, uning Markaziy Osiyodagi kuchli va samarali ishtiroki hamda energetika bozoriga sarmoya kiritayotgani Eronning bu mintaqadagi ta‘sirini kuchaytirishi yo‘lidagi eng muhim to‘siqlardan biridir.

Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligiga kelsak, Tehron Turkiyaning mintaqadagi strategiyasini va bu davlatlar bilan iqtisodiy kelishuvlarini Eronning mintaqadagi taraqqiyoti va ta‘siriga to‘siq deb hisoblaydi. Anqara ayniqsa madaniy va tarixiy aloqalaridan Markaziy Osiyodagi ishtirokini chuqurlashtirishda ko‘prik sifatida foydalanmoqda. Eron din va til borasidagi umumiy jihatlardan foydalanish nuqtayi nazaridan Turkiyanikiga o‘xshash strategiyani qo‘llasa-da, ayniqsa Tehronning mintaqada fors tilida so‘zlashuvchi yagona davlat bo‘lgan Tojikistonga ta‘siri Turkiyanikidek samarali emasdek ko‘rinadi.

Mintaqada Eronning “yumshoq kuchi”ni targ‘ib qilish bo‘yicha asosiy ijro etuvchi organ Madaniyat vazirligi huzuridagi Islom madaniyati va aloqalari tashkiloti hisoblanadi¹⁴. Tashkilot Markaziy Osiyoning barcha poytaxtlarida Eron madaniyat markazlarini ochish orqali mintaqada o‘z fors tili va madaniyatini targ‘ib qilishga intiladi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning ko‘plab ta‘lim muassasalarida Islom Respublikasi elchixonalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan fors tili kurslari tashkil qilingan. Eron Tojikistonga Tehron bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida aloqa o‘rnatishda yordam beradigan vosita sifatida qaraydi.

Markaziy Osiyo mintaqasi nafaqat umumiy madaniy merosi, balki xavfsizlik sohasidagi aloqalari tufayli ham Eron tashqi siyosatida doimo alohida ahamiyatga ega

¹³ Mohsen Milani. Iran in a Reconnecting Eurasia: Foreign Economic and Security Interests. // Lanham, MD: Rowman and Littlefield, 2016. – P. 38.

¹⁴ Elise Marechal. The Islamic Republic of Iran’s Soft Power an Analysis of the Islamic Culture and Relations Organization’s Activities. // University of Bologna, 2022. – P. 8.

bo‘lib kelgan, madaniy diplomatiya esa mintaqada qo‘llaniladigan diplomatiya turlari orasida yuqori o‘rinni egallagan. Madaniy chegaralarning siyosiy chegaralarga qaraganda kengligi Eronga fan va ta‘lim vositalaridan foydalangan holda o‘zining “yumshoq kuchi”ni oshirish imkonini beradi.

Islom inqilobi g‘alaba qozongach, Eron o‘zining g‘oya va maqsadlarini tanitish bilan bir qatorda, unga qarshi ayblov va tashviqotlarni bartaraf etish maqsadida madaniy diplomatiyadan keng foydalanib kelmoqda¹⁵. Eronning “yumshoq kuchi” Zaharna tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama yondashuvga asoslanadi: birinchisi — G‘arb siyosatini qoralovchi xalqaro media tarmoqlar orqali xorijiy jamoatchilik bilan munosabat o‘rnatishga asoslangan yondashuv; ikkinchisi — diniy, madaniy va ma‘rifiy xalq diplomatiyasi. Tehronning asosiy “yumshoq kuch” manbai islom dini bo‘lib, u shialikni targ‘ib qilish bilan birga, sunniy musulmon jamoalar bilan umumiy bo‘lgan diniy qarashlardan ham foydalanishga harakat qiladi. Fors madaniyatini namoyish qilish (ayniqsa, nomusulmon mamlakatlarda) Tehron “yumshoq kuchi”ning ikkinchi ustunidir¹⁶.

2000-yillar boshida Eron Islom Respublikasi Lotin Amerikasi, Yevropa, Afrika, Osiyo va Yaqin Sharqni qamrab oluvchi haqiqiy media tarmog‘ini barpo etdi. Media tarmog‘ini yaratishdan maqsad G‘arb dunyosi yashirgan haqiqatni tiklash va xalqaro ommaviy axborot vositalarida Eronni qoralovchi ma‘lumotlarga qarshi kurashish, dunyo voqealarining borishi va Eronning amalda qandayligini ko‘rsatishdir. 2000-yillar boshidan Tehron o‘zining “yumshoq kuchi”ni asosan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi arab tilida so‘zlashuvchilarga bog‘langan sun‘iy yo‘ldosh telekanallari (Al-Alam, Al-Kavsar, Ay-film) orqali kengaytira boshladi. Bu ommaviy axborot vositalarining barchasi Eron uchun “yumshoq kuch” vositalaridir, chunki ular axborotni har bir auditoriyaga moslashtirgan holda uning siyosati va rahbarlarini eng yaxshi tomondan taqdim etish imkonini beradi.

Islom madaniyati va aloqalari tashkiloti Eronning “madaniy diplomatiya tashkiloti” hisoblanadi, fors madaniyati va shia islomini xorijda targ‘ib qiluvchi roli tufayli Tehron yumshoq kuchining asosiy muassasalaridan biri hisoblanadi. Tashabbuslar asosan madaniy haftalik va ko‘rgazmalar, tanlov va diniy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Islom madaniyati va aloqalari tashkiloti ko‘pincha umumiy islomiy e‘tiqodlardan foydalanishga harakat qiladi va qonuniylikni mustahkamlash uchun sunniylik va shialik o‘rtasidagi tafovutlarga ortiqcha urg‘u bermaydi. Tashkilot diniy diplomatiyani to‘ldirish uchun, ozgina bo‘lsa-da, fors madaniyatini (ayniqsa Eron bilan mustahkam tarixiy-madaniy aloqalarga ega bo‘lgan mamlakatlarda) targ‘ib qilishga tayanadi.

Osiyoda Eronning 24 ta madaniyat markazi mavjudligi rasmiy Tehronning madaniy ta‘sir ko‘rsatish borasidagi tashqi siyosatida Sharqqa siljish borligidan dalolat beradi. Eron madaniyat vakillarining faolligi, ayniqsa, Kavkaz, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarida seziladi. Markaziy Osiyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lish Eron madaniy diplomatiyasining asosiy maqsadlaridan biridir.

¹⁵ Dehshiri Mohammadreza. A comparative study of the cultural diplomacy of Iran and Saudi Arabia in Central Asia. // Central Eurasian Studies, Volume 13, Number 2, 2019. – P. 453.

¹⁶ Zaharna R. Mapping out a Spectrum of Public Diplomacy Initiatives: Information and Relational Communication Frameworks. // Routledge Handbook of Public Diplomacy, 2009. – P. 88.

AQSh qo'shinlarining Afg'onistondan olib ketilishi unga qo'shni bo'lgan Eron uchun quvonchli voqea bo'lsa-da, tez orada davlat boshqaruvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar Eronning xavotiriga sabab bo'lmoqda.

AQSh kuchlarining Afg'onistondan olib ketilishi va Tolibonning hokimiyatga qaytishi Eronga bir qancha imkoniyatlarni taqdim etdi, biroq bu imkoniyatlar negizida ko'plab muammolarga ham duch keldi.

Imkoniyatlar:

1. Eron va Tolibonning umumiy raqibi borligini inobatga olsak, AQShning Afg'onistondan chiqib ketishi tufayli yuzaga kelgan bu bo'shliq uning foydasiga ishlashi mumkin. Ikki tomon o'rtasidagi geografik yaqinlik Eronga Afg'oniston uchun zarur bo'lgan tovarlar, elektr energiyasi va neft mahsulotlarini yetkazib berish hamda uning hududida qurilish obyektlarini barpo etish imkonini beradi.

2. Eron va Afg'oniston katta madaniy, tarixiy hamda geografik o'xshashliklarga ega, xususan, fors tilining mavjudligi. Tehron Afg'onistondagi tojiklar, hazoralar va o'zbeklar bilan hamkorlik qilishga umid qilmoqda, shu bilan birga Tolibonning tayanchini tashkil etuvchi pushtun jamiyati o'rtasidagi tarqoqlikdan foydalanishi mumkin.

Muammolar:

1. Tez rivojlanayotgan afg'on maydonidagi raqobat Eron uchun ochiq muammodir. Afg'onistonga qo'shni davlatlardan Pokiston Eronning Afg'onistondagi asosiy raqobatchisi hisoblanadi. Etnik miqyosda Afg'onistondagi ko'pchilikni tashkil etuvchi pushtunlar Pokiston bilan yaqinroq bog'langan. Tolibonning Pokiston bilan yaqin munosabatda ekanligi bu ikki davlat o'rtasidagi savdo to'siqlarini kamaytiradi hamda savdo ko'lami sezilarli darajada kengayadi.

2. Eron AQSh Afg'onistondan chiqib ketganidan keyin IShID faoliyati kengayishi mumkinligidan xavotirda. Bir necha yillar davomida Erondagi afg'on qochqinlari masalasi ikkala tomonni tashvishga solayotgan asosiy masala bo'lib, Eronda afg'on qochqinlarining ko'payganligi Tehron uchun xavfsizlik va iqtisodiyot sohasida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

3. Suv muammosi yoki gidrosiyosat har ikki tomon uchun ham milliy xavfsizlik masalasidir. O'tgan asrda suv eng muhim strategik tovarlardan biriga aylandi. Masalan, Eronning sharqiy va Afg'onistonning g'arbiy qismlarini sug'oradigan Hilmand daryosining suvi borasida Eron va Afg'oniston o'rtasida kelishmovchilik bo'lgan. Mazkur daryo suvining taqsimoti bilan bog'liq masala har ikki tomon o'rtasida, ayniqsa, suv ajratish, xususan, delta hududidan foydalanish bo'yicha tortishuvlarga sabab bo'lmoqda.

Markaziy Osiyoda terrorchilik tahdidlariga qarshi kurash — murakkab masala. Bu tahdidlarga qarshi kurashish uchun Markaziy Osiyo hukumatlari terrorizmga qarshi milliy strategiyalarini qayta ko'rib chiqmoqda. Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi aksiterror hamkorlikning o'z chegarasi bor, chunki Markaziy Osiyo davlatlarining hammasi ham yuqoridagi tashkilotlarga a'zo emas. Shuningdek, bu strategiyalar, asosan, boshqa mintaqalardan kelib chiqadigan emas, balki a'zo davlatlar ichida terrorizmga qarshi kurashish uchun ishlab chiqilgan. Boshqa tomondan, ba'zi tashqi ishtirokchilar mintaqadagi xavfsizlik vaziyatini yaxshilashda buzg'unchi rol o'ynaydi. Darhaqiqat, hech bir buyuk davlat

terrorizmga qarshi jiddiy kurashmayapti. Hozirgi vaqtda mintaqaning xavfsizlik sharoitlari bir qancha sabablarga ko‘ra murakkablashishi mumkin:

- terrorchi va ekstremist guruhlarning tarqalishi;
- mintaqada ISHID ta’sirining ortishi;

•Iroq va Suriyadagi ISHID jangarilari safida Markaziy Osiyo davlatlari, Afg‘oniston va Pokistondan kelgan muhojirlar borligi.

Markaziy Osiyoda ekstremizm tahdidlarining kuchayishi Eron manfaatlari uchun kuchli tahdidir. Afg‘onistonda ISHID kuchlarining ko‘payib borayotgani Markaziy Osiyo davlatlari va Eron xavfsizligi kun tartibidagi ustuvor masala bo‘lib qolmoqda.

Dunyodagi noqonuniy narkotik moddalarining qariyb 80 foizi Afg‘onistonda ishlab chiqariladi hamda Eron orqali Yaqin Sharq va Yevropa bozorlariga o‘tkaziladi. Eron so‘nggi yillarda giyohvandlikka qarshi kurash borasida Pokiston va Afg‘oniston bilan tobora ko‘proq hamkorlik qilmoqda, biroq narkotik moddalarning noqonuniy savdosi mintqa xavfsizligiga jiddiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Tolibon Afg‘onistonda narkotik moddalar ishlab chiqarilishiga qarshi kurashish niyatida bo‘lishiga qaramay, ular hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng Markaziy Osiyo mamlakatlariga “shimoliy yo‘l” bo‘ylab narkotik moddalar oqimi sezilarli darajada oshdi. 2022-yilning birinchi choragida Tojikistonda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14,5 barobar ko‘p afg‘on narkotiklari musodara qilingan. Bunga qo‘shimcha, O‘zbekistonning huquq organlari 2022-yil davomida giyohvandlik vositalarining qonunga xilof tarzda mamlakat hududi orqali o‘tkazilishi bilan bog‘liq 8681 ta holatni qayd etgan¹⁷.

Tolibon hokimiyatni qo‘lga olganidan so‘ng qochqinlar oqimi ko‘paydi. BMTning Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissari bergan hisobotga ko‘ra (2022-yil yakunlari), dunyodagi jami 108,4 mln. qochqinning 5,2 foizi, ya’ni 5,6 mln. nafari afg‘onlar bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha Afg‘oniston jahonda 3-o‘rinni egallagan. Ammo Xalqaro migratsiya tashkilotining hisobotiga ko‘ra, Eron va Pokistonning o‘zida 7,2 mln. afg‘on qochqin maqomida. Ammo, eng muhimi, Afg‘onistondagi qochqinlar foizi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu hol hozircha Eron va Pokistonga bir qancha qiyinchiliklar yaratayotgan bo‘lsa, vaqt o‘tib Afg‘onistonga chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlarida ham jiddiy muammolar tug‘dirishi mumkin.

Afg‘oniston elektr energiyasining 73 foizini (Eron — 22, Tojikistondan — 4, Turkmanistondan — 17 va O‘zbekistondan 57 foizini) import qiladi. Tolibon import qilishda davom etayotgan elektr energiyasi uchun pul to‘lashga qodir emasligiga qaramay, O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston uni yetkazib berishda davom etmoqda. Bu Tolibonni tinchlantirish hamda afg‘on aholisi elektr ta’minotidan mahrum bo‘lishi va og‘ir ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotda yanada kuchli tanazzulning oldini olish uchun qilingan. Biroq, bu uzoq muddatli kelishuv emasligi aniq: agar kelajakda elektr uzatishda yetishmovchilik kuzatilsa, bu hol ushbu mamlakatlar bilan munosabatlar yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon Tojikistonning janubiy chegarasida Tolibon kuchlari ko‘payib borayotganidan hamda Tojikiston va Afg‘oniston chegarasida Tolibon qanotlari o‘rtasidagi o‘zaro to‘qnashuvlardan xavotir

¹⁷ Reportaj: 2 tonnadan ziyod giyohvandlik moddalari yoqib yuborildi. Kun.uz axborot agentligi rasmiy sayti // 26.06.2023. // URL: <https://kun.uz/uz/82903723#!>

bildirgan, ammo Tolibon bu da'volarni rad etib kelmoqda. Tolibon qo'mondonlari so'nggi 20 yil davomida sobiq hukumatlar davrida ishlagan tojik va hazora siyosiy yetakchilari bilan hokimiyatni bo'lishishdan bosh tortgan. "Xuroson islomiy davlati" terrorchilik guruhi Markaziy Osiyodagi targ'ibot harakatlarining aksariyat qismini o'zining rasmiy bo'linmasi bo'lgan al-Azaim guruhi orqali olib boradi. Al-Azaim o'z targ'ibotini ilgari faqat pushtu va urdu tillarida amalga oshirgan bo'lsa, hozirda tojik, o'zbek va boshqa mintaqaviy tillarda ham o'z nashrlariga ega. Binobarin, ularning yangi strategiyasi yana markaziy osiyoliklarni jalb qilishga qaratilgan, deb taxmin qilishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi: bugungi holati va rivojlanish tendensiyalari"** deb nomlanib, unda Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlari, Eron Islom Respublikasi va O'zbekiston o'rtasidagi tashqi siyosiy munosabatlarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan.

Eronning Qozog'iston va O'zbekistonga nisbatan siyosati uchta uzviy maqsaddan iborat bo'lib, Tehrondagi strategik hisob-kitoblarga ko'ra, har qanday holatda ham AQSh bosimiga qarshi turish zarurati bilan bog'liq. Bular quyidagilar:

1) savdo va energetika infratuzilmalarini kengaytirish (chunki Qozog'iston va O'zbekiston sanksiyalardan xalos bo'lishi mumkin bo'lgan bir qator bozorlar chorrahasida joylashgan);

2) siyosiy yakkalanishni (ayniqsa Qozog'iston va O'zbekiston asosiy a'zosi bo'lgan mintaqaviy tashkilotlar orqali) bartaraf etish;

3) milliy xavfsizlikka tahdidlarni kamaytirish, buning uchun AQShni mintaqaxavfsizlik tizimidan chiqarib tashlashda ko'maklashish.

Eron Qozog'iston va O'zbekiston, shuningdek, Rossiya va Xitoy kabi davlatlar bilan jismonan hamda moliyaviy jihatdan bog'lanib, AQShning bir tomonlama sanksiyalarini yengib o'tishga umid qilmoqda. Eronlik olim Isfandiyor Batmanhalij ta'kidlaganidek, sharq tomonga yuzlanish Eron tashqi siyosatida katta paradigmatal o'zgarish bo'layotganini ko'rsatadi: bunda mamlakat endi o'zini nafaqat "Yaqin Sharq" kuchi sifatida, balki "Evrosiyo" davlati sifatida ham tasavvur qiladi¹⁸. Amaliy nuqtayi nazardan, bu shuni ko'rsatadiki, Eron Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyoga tobora ko'proq o'zining yangi tortishish markazi sifatida qaraydi va yaqin yillarda o'z siyosiy kapitalining katta qismini mintaqaviy ittifoq va tarmoqlarga qo'shilishga sarflaydi. Eron nuqtayi nazaridan, Amerika gegemonligiga qarshi eng yaxshi chora yangi mintaqaviy tartib barpo etish bo'lib, bunda Qozog'iston hamda O'zbekiston kabi davlatlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Qozog'iston Qo'shma Shtatlar bilan yaqin munosabatda ekanligiga qaramay, Eronning xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo'yilgan davlat holatidan chiqib olishida yordam berish siyosatini davom ettirmoqda. Neft daromadiga ega bo'lmagan O'zbekiston uchun esa Eron bilan hamkorlik qilish ancha nozik masala. Umuman olganda, ikkala davlat ham Eron Islom Respublikasiga nisbatan quyidagi mushtarak maqsadlarni ko'zlaydi:

¹⁸ Batmanghelidj Esfandiyar. Introduction in Iran's Bilateral Relations in the New Eurasian Context. // National University of Singapore and Bourse and Bazaar, 2020. – P. 1-6.

- Eron orqali ochiq suv havzalariga chiqish hamda Rossiyaning energiya quvurlarini nazorat qilish orqali ko'rsatayotgan ta'siridan himoyalaniş uchun iqtisodiy aloqalarni, ayniqsa "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida kengaytirish;

- savdo-sotiqni osonlashtirish va Eronning mintaqaviy maqomini normallashtirish uchun Eronni mintaqaviy tashkilotlarga, ayniqsa Rossiya va Xitoy boshchiligidagi tashkilotlarga qo'shish;

- mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa, gap Eron va O'zbekistonning umumiy qo'shnilari (Afg'oniston va Turkmaniston)da beqarorlik va hokimiyat vakuumlari potentsiali haqida ketganda.

Hozirgacha Qozog'iston va O'zbekiston Eronning Yevrosiyo siyosiy tartibidagi ishtirokini ehtiyotkorlik bilan qo'llab-quvvatlab kelmoqda, Eron esa Qozog'iston va O'zbekiston tovarlarini kengroq mintaqaga bilan bog'laydigan temir yo'llar va portlarni kengaytirishda g'ayratli hamkor sifatida harakat qilmoqda. Shunday qilib, bugun munosabatlar uzoq muddatli bo'lib qolsa-da, barcha tomonlar uchun potentsial katta uzoq muddatli foyda keltiradigan strategik sarmoyani ifodalashi mumkin.

Geografik joylashuviga ko'ra, Eron Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan yoki u orqali o'tadigan mahsulotlar uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Uning Fors ko'rfazidagi portlari (ayniqsa Bandar Abbas va Chobahor) Markaziy Osiyoning dengizga olib boradigan eng qisqa yo'llari bo'lib, temir yo'l va avtomobil tarmoqlari ham Yevropa va Sharqiy Osiyoga yuk tashish uchun asosiy o'tish yo'llari bo'lishi mumkin. Siyosiy jihatdan Eron yo'lagi jozibador, chunki u Rossiya yo'nalishini chetlab o'tib, eksportchilarga Moskvaning iqtisodiy manipulyatsiyasidan himoyalaniş imkonini beradi.

Eronning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi haqidagi statistik ma'lumotlar, garchi ularni Internetdan osongina topish mumkin bo'lsa-da, juda ishonchsizdir, ayni bir xil ko'rsatkichlar manbaiga qarab ba'zan 10 yoki undan ko'p marta o'zgarib turadi. Bu esa tadqiqotchilar uchun jiddiy muammo tug'diradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, Eron kabi sanksiyaga uchragan davlat bilan savdo qilish ikkinchi va uchinchi tomonlarni AQShning qonuniy bosimiga duchor qilishi mumkin hamda moliyaviy oqimlarning katta qismi offshor kompaniyalari orqali o'tadi. Natijada ommaviy savdo ko'rsatkichlari, ehtimol, real hajmining faqat bir qismini ifodalaydi¹⁹.

Qo'shma loyihalarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash uchun Qozog'iston Eron kompaniyalariga erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridagi maydonlarni berishga tayyor. Shuningdek, yangi yo'nalish bo'yicha yo'lga qo'yilgan Qozog'iston yoki O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya yangi temir yo'l liniyasi o'zining yangi logistik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ukrainadagi urush sababli Rossiyaga qarshi sanksiyalar kiritilganidan keyin Qozog'iston o'z neftini dunyoga eksport qilish uchun muqobil portlar qidirmoqda. Yevrosiyo masalalari bo'yicha eronlik ekspert Ahmad Qosimzodaning fikricha, hozirda Qozog'iston neft eksportining 96 foizi Rossiya portlari orqali amalga oshiriladi. Sanksiyalar ortidan yevropalik xaridorlar Qozog'iston neftini Rossiya orqali sotib olishni istamasligini ko'rsatmoqda. Eron ham, Qozog'iston ham Shimol-Janub va G'arb-Sharq yo'laklari kesishgan yerda

¹⁹ Cooley Alexander and Heathershaw John. Dictators Without Borders: Power and Money in Central Asia. // Yale University Press, 2017. – P. 212-213.

joylashganligi sababli, ularning roli butun Yevrosiyo mintaqasi uchun oziq-ovqat va sanoat xavfsizligini ta'minlashda ulkan ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, Eron orqali o'tadigan janubiy yo'l Yevropaga zarur bo'lgan neft va gazni Rossiya hududiga kirmay olib o'tishga qodir. Aftidan, Kaspiy dengizidan energiya manbaini Eron orqali tashish varianti endi jiddiyroq ko'rib chiqilishi mumkin.


Ma'lumotlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak bo'lsa-da, har bir manba shuni ko'rsatmoqdaki, bu davrda savdo yuqorida ko'rsatilgan raqamlarning faqat kichik bir qismini tashkil etgan hamda hatto sanksiyalar yumshatilgan yillarda ham barqaror o'sishni ko'rsatmagan. Masalan, 1-jadvalda Eronning Qozog'istondagi elchixonasi bergan o'zaro savdo raqamlari ko'rsatilgan (million AQSh dollarida).

1-jadval

Qozog'iston-Eron o'zaro savdo ko'rsatkichlari (million AQSh dollarida)²⁰

Yillar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Eronning Qozog'istonga eksporti	135	210	208	151	174	167	131	170	145
Eronning Qozog'istondan importi	186	84	179	107	211	68	87	102	35
Savdo hajmi	-51	+126	+29	+44	-37	+99	+44	+68	+110
Umumiy savdo aylanmasi	321	294	387	258	385	235	218	272	180

Yuqoridagi raqamlar Grigorian taqvimini Eron taqvimiga o'tkazishdagi yaxlitlash va xatolar bilan bog'liq ma'lumotlardagi o'zgarishlar (ba'zi yillar davomida taxminan 2-3%) bilan Eronning boshqa organlari tomonidan taqdim etilgan raqamlarga o'xshaydi. Xuddi shu ma'lumotlar 2013-yildagi Eron Savdo-sanoat palatasining hisobotlarida ham ko'rinadi.



3-rasm. Eronning Qozog'istonga eksport va import hajmi (2006-2016)

Bu raqamlar tashqi tarafdin ishonchli ko'rinadi. Aytish joizki, ma'lumotlarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak va aniq raqamlarni taqdim etishdan ko'ra savdoning keng konturlarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda, Eronning so'nggi rasmiy ma'lumotlari Qozog'iston bilan o'zaro savdo asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda.

²⁰ <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/kaz/partner/irn>.

**Qozog‘iston-Eronning eng yaxshi beshta savdo mahsuloti
(2020, million AQSh dollarida)**

Qozog‘istonga eksport mahsulot	Qiymati	Qozog‘istondan import mahsulot	Qiymati
Pista (barcha turlari)	37,1	Kungaboqar yog‘i	9,9
Urug‘siz mayiz	12,5	Arpa	8,9
Yangi va quritilgan xurmo	10,5	Rukola	6,4
Xurmo	5,9	Chorva ozuqasi	4,6
Olma	5,8	Kon va burg‘ulash mashinalari	6,2

2-jadval haqiqiy qiymat qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, yuqoridagi raqamlar Qozog‘iston-Eron savdosini har ikki davlatning umumiy savdo hajmiga nisbatan (har biri < 0,01%) kichik deb ko‘rsatadi. Birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qo‘shilgan qiymati kam bo‘lgan tovarlardan iborat ekanligi hamda neft yoki qimmatbaho metallarning har qanday almashinuvi yo‘qligi aks etadi. Ma‘lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, savdo hajmi nisbatan kichik va noaniqliklarga to‘la. Bu shuni ko‘rsatadiki, sanksiyalar savdoning umumiy hajmini cheklashi mumkin bo‘lsa-da, qisqa muddatli o‘zgarishlar ko‘proq neft va valyuta bahosiga bog‘liq. Bu esa sanksiyalar hech qanday ta‘sir ko‘rsatmaganligini anglatmaydi. Agar ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘nggi 13 yil ichida jami savdo hajmi 8-10 baravar qisqargani aniq bo‘ladi (Eron bojxona ma‘lumotlariga ko‘ra).

Aytish joizki, ikki davlat o‘rtasida bank sohasidagi hamkorlik deyarli yo‘q. 2009-yilda “Wikileaks” sayti Qozog‘istonning Tehrondagi elchisidan iqtibos keltirgan holda, xorijiy tranzaksiyalarga qo‘yilgan cheklovlar va huquqiy muammolar Qozog‘istonning Eronga sarmoya kiritilishiga katta to‘siqlar tug‘dirayotgani, shuning uchun elchixonaga o‘z moliyaviy operatsiyalarini Tehrondagi Dubay bank hisobvarag‘idan moliyalashtirishni afzal ko‘rgani haqida yozadi. Bugun ham ko‘p narsa o‘zgarmagan: Eron veb-saytlarida eksport kreditlari beruvchi deb ko‘rsatilgan bank (Qozog‘istonning Delta Banki) 2017-yilda tugatilgan, Eron bilan aloqalari bor boshqa Qozog‘iston banklari borligi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q.

**Eron ko‘rsatkichlari: 2013-2020-yillarda O‘zbekiston-Eron savdo aylanmasi
(million AQSh dollarida)**

Yillar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Eronning O‘zbekistonga eksporti	98	107	233	179	100	139	237	133
Eronning O‘zbekistondan importi	134	101	31	61	60	45	146	77
Savdo hajmi	-36	+6	+202	+118	+40	+94	+91	+56
Umumiy savdo aylanmasi	232	208	264	240	160	184	383	210

Yuqoridagi masalalarni inobatga oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston-Eron savdosiga oid ko‘rsatkichlar juda xilma-xil ekanligi ajablanarli emas. 2014-yildan buyon import yoki eksportining 2% idan ko‘proq ulushiga yetgani kuzatilmaydi. Kelgusi yillarda Eron siyosatini rejalashtiruvchilar tijoratning umumiy hajmi bir necha milliard dollarga yetishini ko‘zlamodalar, biroq bugunga qadar umumiy savdo hajmi yiliga atigi bir necha yuz millionni tashkil etmoqda, u ham deyarli butunlay qishloq xo‘jaligiga tegishlidir.

4-jadvalda import va eksport mahsulotlarini qishloq xo‘jaligidan kimyoviy mahsulotlarga biroz diversifikatsiya qilinganligini ko‘rishimiz mumkin:

4-jadval

**O‘zbekiston-Eronning eng yaxshi beshta savdo mahsuloti
(2020, million AQSh dollarida)²¹**

O‘zbekistonga eksport qilinadigan mahsulot	Qiymati	O‘zbekistondan import mahsulot	Qiymati
Tog‘-kon mashinalari	11.2	Paxta (xomashyo)	41.5
Kartoshka	4.1	Kaliy xlorid	6.7
Polietilen polimer	3.4	Bir torli ip (taroqlangan)	2.4
Polietilen mato	3.4	Pechlar uchun ko‘mir elektrodleri	2.3
Chiziqli alkilbenzollar	3.3	Bir torli ip (taroqlanmagan)	1.8

Qozog‘iston misolida bo‘lgani kabi, qaysi ko‘rsatkich haqiqatni aks ettirishini aniqlash qiyin, chunki O‘zbekiston savdo hajmi va ko‘lamini kamaytirishga intilayotgan bo‘lsa, Eron buning teskarisini qilishga harakat qilishi mumkin.

Aniq raqamlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, Eron hukumati Markaziy Osiyodagi qo‘shnisi bilan yana savdo kamomadiga duchor bo‘lmoqda va mamlakatda nisbatan unchalik katta bo‘lmagan tijorat ishtirokiga ega, deb aytish mumkin. Oxirgi oylardagi ikki tomonlama uchrashuvlar yangi savdo kelishuvlari va Eronning Chobahor portida o‘zbek tarafining faolligini oshirishga olib kelgan bo‘lsa-da, bugunga qadar savdo aloqalarining sur‘ati va rivojlanishi *COVID-19 pandemiyasi* va AQSh *sanksiyalari rejimi tomonidan ikki baravar cheklanganligini* aks ettiradi.

Umuman olganda, Eronning Markaziy Osiyo mintaqasida quyidagi fundamental manfaatlari mavjud bo‘lib, ular O‘zbekistonda ham qo‘llab-quvvatlanadi:

Afg‘oniston Eron va Markaziy Osiyo davlatlariga geografik, tarixiy, madaniy va etnik jihatdan yaqinligi tufayli *Afg‘onistondagi vaziyat bilan uzviy bo‘lgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash*. Tehron Afg‘onistonning birligi, tinchligi va barqarorligini ta‘minlashga intiladi, shuningdek, barcha etnik guruhlar, din va harakatlarning teng ishtirokida (va shia jamoasiga ma‘lum erkinliklar berib) afg‘on koalitsion hukumati tuzilishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu ham Toshkentning manfaatlari mos keladi.

Bundan tashqari, *diniy ekstremizmning kuchayishi, narkotik moddalar ishlab chiqarish va noqonuniy savdoning sezilarli darajada o‘shishi* bilan bir qatorda, O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lganligi sababli, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammosi Toshkent uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababdan, bunday sharoitda ikki qarama-qarshi pozitsiyaga ega davlatlar o‘rtasida ziddiyatlarning oldini olish, mavjud muammolarni siyosiy yo‘l bilan hal qilish eng muhim masalalardan biridir.

Geoiqtisodiy loyihalar orqali mintaqa maqomini mustahkamlash. Eron Markaziy Osiyo davlatlarini uning ishtirokida mintaqaviy (“Markaziy Osiyo+” formatlari) va xalqaro iqtisodiy tuzilmalar (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti) doirasida jalb qilishdan

²¹ <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/kaz/partner/irn>.

manfaatdordir. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlariga mos keladi, chunki ularga jahon bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Biroq, bu hamkorlik va amaliy yondashuv iqtisodiyot sohasi bilan cheklanib qolmaydi, balki bunda turli masalalarga, jumladan mintaqaviy xavfsizlikka ham e'tibor qaratiladi. Shu boisdan ham aytish mumkinki, 2022-yil 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 22-majlisida eng muhim xavfsizlik masalalaridan biri bo'lgan Afg'oniston muammosi bo'yicha konstruktiv sa'y-harakatlarga alohida e'tibor qaratildi. Shanxay hamkorlik tashkilotida energetika sohasidagi konvergensiya iqtisodiy rivojlanishni yanada rivojlantirishga, pirovardida mintaqada va undan tashqarida xavfsizlik va iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish hamda barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Bu borada Eron o'zining noyob imkoniyatlariga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- dunyodagi eng yirik ikkita neft va uglevodorod konlariga, ya'ni Fors ko'rfazi va Kaspiy dengiziga yaqinligi;

- neft va gazni tashish tarmog'i va tranzit joylashuvi;

- mutaxassis kadrlarni tayyorlash.

2023-yil 4-iyul kuni Eron Shanxay hamkorlik tashkilotiga to'laqonli a'zo ekanligi e'lon qilindi. Toshkent Eron orqali ("Termiz — Mozori Sharif — Hirot — Chobahor" temir yo'l liniyasi bo'yicha) bog'lanishni iqtisodiy jihatdan eng foydali va jahon bozorlariga chiqiladigan eng qisqa yo'l deb hisoblaydi. Aksincha, Tehron Xitoy va Sharqiy Osiyoga O'zbekiston orqali chiqishni strategik jihatdan eng muhim va eng qisqa tranzit yo'li deb hisoblaydi. Xalqaro Shimol-Janub transport yo'lagi doirasida va Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida rejalashtirilgan suv, temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmoqlarini kengaytirish Markaziy Osiyo mamlakatlariga olib boruvchi transport yo'nalishlarini deyarli ikki baravar qisqartiradi hamda Eronni mintaqaga bilan bo'lajak savdo markaziga aylantiradi.

O'zbekiston va Eron *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti* kabi xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi boshqa masalalar doirasida hamkorlik qiladi. Afg'onistondagi vaziyatni hal qilish borasida tomonlarning qarashlari yaqin. Har ikki davlat *Afg'oniston muammolarini tinch va diplomatik yo'llar bilan*, Afg'onistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvini tezlashtirish orqali hal qilmoqchi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston va Eron *savdo, sarmoyaviy hamkorlik, iqtisodiyot, logistika va transport, amaliy fan va texnologiyalar sohaslarida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish* uchun ulkan salohiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi *ilmiy-amaliy xulosalar* shakllantirildi:

1. Inqilobiy mafkura shia teologiyasi va anti-imperializmning tarkibiy qismi bo'lib, xalqaro kuch taqsimoti va Eronning xalqaro siyosatdagi o'rniga qarab, mamlakat tashqi siyosatiga turli darajada ta'sir qiladi.

Qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan diniy ulamolar milliy mafkurani birinchi navbatda himoya qiladilar. Shunday ekan, tahdid paydo bo'lishi

bilanoq mafkuraviy tashqi siyosat kuchayadi.

2. Milliylik Eron tashqi siyosatining quroli bo'lib, davlatni xorijiy kuchlar manipulyatsiyasidan himoya qilish, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash yoki mustaqilligini ta'minlash kabi turli holatlarda qo'llaniladi.

Shunday qilib, milliylik etnonatsionalizm yoki lingvo-millatchilik, dunyoviy yoki diniy millatchilik kabi salbiy ma'nolarni anglatmaydi. Milliylik Islom Respublikasini himoya qilish uchun har qanday holatlarga qarshi moslashish imkonini beradi.

3. Shia mafkurasi oddiy bo'linishni amalga oshiradi: "zolim va mag'rur kuchlar hamda mazlum xalqlar". Inqilob eksporti adolatsiz va noqonuniy boshqaruvlar o'rniga mustaqil va adolatli islomiy boshqaruvni olib kelishni nazarda tutadi.

Ozchilikni tashkil qiluvchi jamoalarga zulm qo'llayotgan kuchlarga qarshilik ko'rsatish ezilgan jamoalarni qutqarish vositasidir. Shunga qaramay, Eron mazhablarni ajratishga qaratilgan siyosatni qabul qilmaydi. Tehron uchun sunniy Falastinni qo'llab-quvvatlash mazkur siyosatning ko'rinishidir.

4. Eronga qarshi davom etayotgan sanksiyalar va G'arb davlatlari bilan ziddiyatlarga keng qamrovli yechim topilmasa, Eronning haqiqiy iqtisodiy rivojlanishi va barqaror farovonligiga ko'p jihatdan erishib bo'lmaydi.

Bu Eronning uzoq davom etgan iqtisodiy muammolarida, hatto Sharq davlatlari bilan aloqalar va munosabatlar kuchaygan taqdirda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Aslini olganda, Sharqqa burilish qisqa muddatli istiqbolda qandaydir strategik foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, Sharq va G'arb tafovutini bartaraf etuvchi puxta o'ylangan tashqi siyosat strategiyasi Eronning global mavqeini, uning dunyo miqyosidagi nufuzini mustahkamlashda muhimroq bo'lishi mumkin.

5. Eronning 2023-yilda Hindistonda bo'lib o'tgan ShHTning navbatdagi sammitida to'laqonli a'zolik bilan ishtirok etishi BRIKSGa qo'shilish yo'lidagi harakatlarini jadallashtirish imkonini berdi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining G'arbiy Osiyodan butunlay chiqib ketish ehtimoli past darajada bo'lsa-da, Xitoyning o'sha mintaqada mavjudligi Eronga ikki mamlakatning ShHTga a'zoligi, Eronning BRIKSGa kirishi Xitoydan kerakli foyda olishni osonlashtirishi mumkin. Agar Qo'shma Shtatlar Eronga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llashda davom etsa, Xitoy kompaniyalari xavf-xatarlar tufayli Eronga sarmoya kiritishni istamasligi mumkin. Bu "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoy-Eron munosabatlarini chuqurlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Bunda faqatgina Xitoy yuanni xalqaro pul birligiga aylantirishga qaratilgan tashabbusning bir qismi sifatida Xitoy Eron munosabatlari rivojlanishi mumkin.

6. 2016-yildan buyon infratuzilma va siyosiy hamkorlik jadal kengayib borayotganiga qaramay, Eronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ishonchli iqtisodiy sherik bo'lishiga olib kelmadi, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo kichik balans bilan cheklanib, tashqi savdo aylanmasi asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lib qolmoqda.

7. O'zbekiston va Eron o'rtasidagi transport-logistika sohasidagi eng katta to'siq AQSh sanksiyalari bo'lib qolmoqda, bu ham Eron iqtisodiyotini falaj qilib qo'yadi, ham Chobahor kabi infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishini sekinlashtiradi. Tehron va Washington o'rtasidagi jiddiy mojaro O'zbekiston tovarlarining tranzit yo'nalishlariga ham qisman ta'sir qiladi. Bundan tashqari, Eronning yadroviy dastur bo'yicha muzokaralarni qayta boshlashi ham Toshkentning manfaatiga mos kelmaydi.

Shu bilan birga, ishdagi tahlillar, xulosalar va olingan ilmiy natijalar asosida Eron bilan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir *qator taklif, tavsiya va fikr-mulohazalar* shakllantirildi:

1. Ikki davlat o'rtasidagi turizm va madaniy aloqalarni rivojlantirish. Buning uchun ikki tomonlama madaniyat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

2. Viza tartibini soddalashtirish, vizasiz guruhli turistik sayohatlar bo'yicha hukumatlararo bitim tuzish;

3. Eron madaniyati bilan yanada yaqinroq tanishtirish maqsadida eron me'morchiligini o'zida aks ettiruvchi dam olish maskanlari va restoranlar ochish;

4. Eron va O'zbekiston bozorlarining holati aks ettiruvchi doimiy axborot byulleteni yoki veb-sayt tashkil qilish orqali ikki mamlakatning asosiy sanoat ishlab chiqaruvchilari, xizmat ko'rsatish markazlari va biznes yuritishning milliy xususiyatlarini bilib olish imkoni yaratiladi;

5. Eron va O'zbekiston tadbirkorlarining keng qatlamlarini tashqi savdo aloqalariga jalb qilish uchun yangi tashkiliy tuzilmalarni (tashqi savdo uyushmalari, imtiyozlar olish huquqiga ega qo'shma savdo va sanoat palatalari) shakllantirish zarurati mavjud;

6. ShHT doirasidagi hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi tashkilot doirasidagi ko'p tomonlama muloqot orqali energiya ta'minoti zanjirlarini barqarorlashtirish.

AQSh va Yevropa sanksiyalari qo'llanib, Rossiya energiya narxlari cheklanganidan so'ng xalqaro energiya ta'minoti zanjirlarida sezilarli o'zgarish kuzatiladi. Shu bilan birga, Eron ShHTga a'zo bo'ldi, Yaqin Sharqning ko'plab davlatlari muloqot bo'yicha hamkorlarga aylandi, bu esa ShHT doirasida energiya resurslariga talab va taklif o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, yangi neft va gaz ta'minoti yo'nalishlari, yangi loyihalarni amalga oshirish, masalan, ShHTning "Energetika klubi" va ShHT ta'minot zanjirlarini barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqish hamkorlikni rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin;

7. O'zbekiston va Eron teng va bo'linmas xavfsizlikni izchil ta'minlash zarurati bo'yicha bir xil qarashlarga ega. Afg'onistondagi keskinlikni bartaraf etishga hissa qo'shish maqsadida ikki tomonlama munosabatlar uchun an'anaviy bo'lgan o'zaro hurmat ruhida muloqotni davom ettirish tavsiya etiladi;

8. "Markaziy Osiyo + Eron" mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish sammitini tashkil etish. Bunda tomonlar mintaqalararo integratsiyasini rag'batlantirishda quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi, jumladan: terrorizmga, narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, atrof-muhitni muhofaza qilish; suv bilan bog'liq muammolar, energiya, savdo va investitsiyalar, transport va turizm;

9. Temir yo'l transport logistikasini rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini yaxshilashda O'zbekiston, Turkmaniston va Eron o'rtasida qo'shma loyihalar ishlab chiqish, qo'shma erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish talab etiladi;

10. Ikki tomonlama yuk tashish hajmi ortib borayotganini hisobga olib, asosiy ta'minot yo'nalishlaridagi yuklarni optimallashtirish maqsadida mavjud nazorat-o'tkazish punktlari samaradorligini oshirish, jumladan, boshqa chegara punktlarida muntazam konteyner tashishni ko'paytirish, shuningdek, yangi o'tkazish punktlari va transport infratuzilmasi obyektlari qurilishi zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

ФАЙЗУЛЛАЕВ САРВАРБЕК АБДУСАТТОР УГЛИ

**ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ ВЕКТОР ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ
ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКИ ИРАН**

**23.00.04 – Международные отношения, политические проблемы
мирового и регионального развития**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПОЛИТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии по политическим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В 2022.4.PhD/Ss368.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Ташкентском Государственном Университете Востоковедения.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Национального Университета Узбекистана (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Сайфуллаев Дурбек Бахтиярович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Хайдаров Абдусамат Ахатович
доктор политических наук, профессор
Юлдашев Анвар Эргашевич
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация: Международная исламская академия Узбекистана

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском Государственном Университете Востоковедения. (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабз, 16. Тел.: (99871) 233-34-241; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского Государственного Университета Востоковедения (зарегистрирована под №___). Адрес: 100047, г.Ташкент, ул. Шахрисабз, 16. Тел.: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024года.

(реестр протокола рассылки № ___ от “___” _____ 2024года).

Н.А. Абдуллаев

Исполняющий обязанности председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, доцент

С.А. Джураев

Исполняющий обязанности ученого секретаря Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

Э.С. Султонова

Председатель Научного семинара по присуждению ученых степеней при Научном совете, доктор политических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях мировой глобализации геополитические устремления государств ускоряют процесс перехода к многополярности мирового порядка. Некоторые субъекты международных отношений пытаются расширить свое влияние на разные страны и регионы, продвигая свои целевые геополитические и геостратегические интересы. В таких условиях, несмотря на геополитическое давление и «игры» мировых сил, страны Центральной Азии пытаются не допустить вмешательства третьих стран в реализацию своей внешнеполитической деятельности.

Ведущие мировые центры политического анализа утверждают, что существует риск распространения военных конфликтов и нестабильности в ближневосточном регионе из-за возрастающей роли и влияния Ирана среди нефтеэкспортирующих стран Персидского залива в процессе поляризации. Они также подчеркивают, что геополитическая ситуация на Ближнем Востоке, борьба с международным терроризмом и стабилизация ситуации в Афганистане, наряду с Россией, США, Турцией, Пакистаном и странами Центральной Азии, напрямую связаны с направлением внешнеполитической деятельности Ирана. В этой связи для Нового Узбекистана также важны изучение внешней политики Ирана, анализ его интересов в регионе с точки зрения прагматической политики, укрепление региональной безопасности в Центральной Азии и определение путей достижения стабильности в регионе.

Узбекистан укрепляет свои отношения со странами мира по различным направлениям в рамках открытой и прагматичной внешней политики. В частности, в рамках внешнеполитических интересов Узбекистана приоритетной задачей определено дальнейшее расширение существующих отношений с государством Иран, совершенствование правовой основы экономического, культурного и гуманитарного сотрудничества. «Пандемия, повлекшая за собой резкое сокращение торгово-экономических связей, спад производства, рост безработицы, крайне негативно влияет на динамику нашего развития. Наряду с этим, обостряется военно-политическая ситуация в отдельных регионах мира, усиливаются противоречия на межнациональной и межрелигиозной основе. Эти глобальные вызовы и угрозы можно преодолеть только путем сохранения и приумножения наших традиций добрососедства, равноправия, доверия и учета интересов друг друга.¹» В этой связи внешняя политика Ирана имеет большое значение для изучения геополитической ситуации на международной арене, определения тенденций развития ситуации на Ближнем Востоке, анализа дальнейших перспективных планов стран Центральной Азии, особенно двусторонних отношений.

Диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 5 апреля 2018 года № УП-5400 «О мерах по коренному

¹ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на саммите Шанхайской организации сотрудничества. Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. 10.11.2020. // URL: <https://president.uz/ru/lists/view/3936>

совершенствованию системы Министерства иностранных дел Республики Узбекистан и усилению его ответственности за реализацию приоритетных направлений внешнеполитической и внешнеэкономической деятельности», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», а также в постановлении от 16 апреля 2020 году №ПП-4680 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», программах сотрудничества между Министерствами иностранных дел Узбекистана и Ирана на 2022-2024 годы и в ряде других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы социальных, правовых и экономических инновационных идей информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Изучая вопросы, связанные с внешнеполитической стратегией Ирана и взаимоотношениями на центральноазиатском направлении, основным источником служат произведения и выступления главы государства Ш.М.Мирзиёева.

Источники по исследуемой теме можно разделить на четыре группы:

Первая группа: работы А. Хайдарова, Г. Юлдашевой, Ф. Каримова, С. Сафоева, А. Джалилова, Ш. Ёвкочева, Н. Касимова, С. Боронова, Д. Ходжимуратова и ряда других ученых.

Вторая группа: среди исследователей, проводивших исследования по вопросам внешней политики Ирана и отношений со Средней Азией и СНГ А. Семенов, С. Мехди, И. Тимофеев, В. Юртаев, Н. Мамедову, Л. Заде, В. Куршакова, Д. Варнавского, Э. Дунаеву, Л. Алиеву, З. Холмуродову и других.

